



**TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARGA NAQD PUL MABLAGLARIGA
BULGAN TALABNI MINIMALLASHTIRISH ORQALI NAQD PULSIZ HISOB
KITOBLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH**

Turdaliyev Jasur Komiljonovich

*"Agrobank" ATB Bank kartalariga xizmat ko'rsatish departamenti,
Plastik kartalar operatsiyalari nazorati boshqarmasi boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida jismoniy shaxslarga naqd pul mablaglariga bulgan talabni minimallashtirish orqali naqd pulsiz hisob kitoblar tizimini rivojlantirish va buni yanada kengaytirish imkoniyatlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar o'rganib chiqildi. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish holati to'plangan statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, tijorat banklarida jismoniy shaxslarga naqd pul mablaglariga bulgan talabni minimallashtirish orqali naqd pulsiz hisob kitoblar tizimini rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, internet-banking, mobil-banking, Bank-mijoz, onlayn-banking.

KIRISH

Tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlashda eng samarali yo'l mijozlarning unga bo'lgan ishonchini qozonish va ular uchun barcha qulayliklarni yaratish, shuningdek, xizmatlar turi, sifati va tezkorligini oshirish hisoblanadi. Banklar raqobatbardoshlikni ta'minlashi uchun zamonaviy bank xizmatlarini joriy etishga, yangi texnologiyalardan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezmoqdalar. Xususan bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o'z nutqida "...bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar ko'rishimiz lozim. Iqtisodiy tuzumlar bir-biridan ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatlari bilan farq qiladi. O'z navbatida, yangi ishlab chiqarish munosabatlari mavjud ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasidan kelib chiqadi.

Yangi ishlab chiqarish munosabatlariga davlat tuzilmasi ham mos kelishi kerak. Alohida olingan davlatda o'zgarishlar yuqoridagidek ketma-ketlikda va bog'liqlikda sodir bo'lmasligi mumkin. Lekin bu jarayondagi umumiy qonuniyatlar xususiy holatlarga bog'liq bo'lmaydi. Har bir ijtimoiy tuzum va shunga muvofiq ravishda, shu tuzumdagi davlatga ma'lum bir moliyaviy tuzilma mos keladi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlari va mamlakatimizni Yevroosiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lishi hamda Umumjahon savdo tashkilotlari bilan olib borayotgan aloqalari bevosita amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatiga bog'liq. Chunki pul-kredit tizimi mamlakat iqtisodiyotini mablag' bilan ta'minlovchi va iqtisodiy islohotlarning samarasini belgilovchi infratuzilma bo'lib hisoblanadi. Tijorat banklarini belgilariga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin. Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat bankiga, aksiyador banklarga, kooperativ, xususiy, mintaqaviy, aralash mulkchilikka asoslangan bankka bo'linadi. Aksiyador banklar aksiyador jamiyat kabi ochiq turdagi yoki



yopiq turdagi aksiyador banklar bo'lishi mumkin. Aksiyadorlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aksiyalarini sotib olishi va aksiyadorlar bo'lishi mumkin. Ba'zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Xususiy banklar - jismoniy shaxsning pul mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi. Joylashish belgisiga qarab tijorat banklar: xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat banklariga bo'linishi mumkin. Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat banklar - universal va maxsus banklarga bo'linadi. Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo'ladi. Maxsus banklar ma'lum yo'nalishlarga xizmat ko'rsatib, o'z faoliyatini shu yo'nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag'ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi banklar, eksportimport operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka-zamin banklari kirishi mumkin. Segmentlangan bank tuzilmasi tijorat va nobank kredit tashkilotlariga faoliyat muhitini (operatsiyalarini) qat'iy qonuniy tomonidan chegaralab qo'yilishini bildiradi. Bunday holat hozirda AQSh, Yaponiya, Kanada kabi davlatlarda mavjud bo'lib, ularda korporativ mijozlarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish operatsiyalari bilan shug'ullanishlari taqiqlanadi. Biroq bugungi kunda AQSHda 1933-yilda qabul qilingan Glass-Steagal qonuni bekor qilinishi kutilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid bir qator olimlarning tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Ularda olimlarning masofaviy bank xizmatlariga odi fikr mulohazalari tahlil qilindi. Xususan, Rus iqtisodchi olimi V.K.Spilnichenkoning fikricha «Bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish bu informasion xizmatlarning kompleksi va mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni uning bankka tashrif buyurmasdan bergan topshirig'iga asosan bajarishdir. Bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish tizimi telekommunikatsiya tizimi orqali bankning ma'lumotlar bazasiga mijozning murojaatiga asoslanadi. N.I.Lixodeyeva esa bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish tizimini mijoz tomonidan komp'yuter texnologiyalaridan foydalangan holda bankka tashrif buyurmasdan ya'ni masofadan buyurtalar asosida bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyasi sifatida e'tirof etgan. K.A.Zabrodiskaya, A.O.Zaxarova "Masofaviy bank xizmatlari – bankning mijozlariga bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish orqali optimal sharoit yaratish faoliyatidir". Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalari sifatida ta'rif berish mumkin. Ammo rivojlangan mamlakatlarga bir yoki ikki pog'onali bank tizimi xosdir. Bir pog'onali bank tizimi varianti mamlakatda yagona markaziy bank hali mavjud bo'lmasa, yoki bitta markaziy bankdan iborat bo'lsagina haqiqiy (haqiqatda) mavjud bo'lishi mumkin. Ammo sivilizatsiya darajasidagi bozor iqtisodiyoti sharoitiga ikki pog'onali bank tizimi xos. Bunda birinchi pog'ona banklari - bu Markaziy bank, ikkinchi quyi pog'ona esa-tijorat banklari va kredit tashkilotlaridir. Markaziy bank-bank tizimi mavjud bo'lgan barcha davlatlar pul-kredit tizimining asosini tashkil qiladi.



Markaziy bankning moliya bozoridagi o'rnini mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga va xususiyatiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida ikki pog'onali bank tizimini shakllanishiga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Chunki buning tepasida Markaziy bank bo'ladi. Ikki pog'onali bank tizimining zarurligi bozor munosabatlarining qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, bu xususiy moliya mablag'laridan erkin foydalanish huquqini talab qiladi. Bu quyi pog'ona banklar-tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, bu munosabatlarni ma'lum miqdorda tartibga solish nazorat qilish maqsadli yo'naltirish zarur. Bunday maxsus institut sifatida Markaziy bank yuzaga chiqadi. Tijorat banklari qanday xizmatlar ko'rsatadi?

Birinchi, banklar sizning mablag'ingiz bilan samarali foydalanishni va xavfsizligini ta'minlagan holda, omonatga pulingizni qabul qilib, foiz to'lash orqali mablag'laringizni ko'paytirib beradi.

Ikkinchi, Sizga mablag'kerak bo'lganda yoki zarur narsalarni sotib olish uchun jamg'armalaringiz yetarli bo'lmaganda, tijorat banklari sizga kreditlar taqdim etishi mumkin. Misol uchun, uy, texnika, avtomobil, mebel sotib olish, o'qish to'lovlari va boshqalar uchun kreditlar olishingiz mumkin.

Uchinchi, banklarning kassalari va mobil ilovalari orqali mahsulotlarning xaridi, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar, jarimalar va boshqalar uchun to'lovlarni amalga oshirish oson.

To'rtinchi, naqd pulsiz mablag'lar bilan to'lash uchun tijorat banklarida hisobvaraqlar ochish mumkin. Bu, onlayn do'konlarda amalga oshirilgan xaridlar uchun eng qulay to'lov yo'li hisoblanadi. Bank hisobvarag'iga mablag'ingizni qo'yib, ularni xavfsizlikda saqlaysiz.

Daromad bilan bir qatorda banklarning yetarli xarajatlari mavjud:

- foizlar bo'yicha xarajatlar: talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlar hisobvaraqlari, muddatli omonatlar, Markaziy bank va boshqa tijorat banklariga to'lovlar, to'lanadigan kreditlar bo'yicha;
- foizsiz xarajatlar: komission xarajatlar va xizmatlar uchun xarajatlar (masalan, bank reklamasi yoki tadbirlarni o'tkazish), xorijiy valyuta kursining salbiy o'zgarishlaridan yo'qotishlar, investitsiyalar va boshqalar;
- operatsion xarajatlar: ish haqi xarajatlari, bank binolarini ijarasi va boshqa xarajatlari, xizmat safarlari, amortizatsiya, sug'urta, soliqlar va boshqalar;
- birlashmalarga a'zolik badallari uchun to'lovlar va fuqarolar omonatini kafolatlash fondiga mablag'lar to'lovlari.

Shunday qilib, bank tizimi miqyosida olib karaydigan bular banklar kuyidagi funksiyalarni bajaradi:

-vaktincha bo'sh turgan mablag'larni yirish va kapitalga aylantirish; -kredit munosabatlarida vositachilik qilish;

-tulov jarayonlarida vositachilik qilish;

-muomalaga kredit vositalarini chikarish.

Xalk xujaligidagi vaktincha bo'sh turgan mablag'larni yigish va ularni kapitalga aylantirish - banklarning ilk funktsiyalaridan biri hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini rivojlantirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va ogʻzaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil oʻtkazish orqali tegishli yoʻnalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Banklar oʻrta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qaboʻl qilish va boshqa davlat, shaxar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar oʻz boʻsh turgan mablagʻlaridan foyda olish maqsadida ularni vaqtincha foydalanishga mablagʻ zarur boʻlgan korxonalarga ssudalar berishgan. Bu pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan. Oxirgi yillarda Respublikaning koʻpgina tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida, davlatning xazina majburiyatlarini koʻp miqdorda sotib olishdi. Chunki qimmatli qogʻozlarning bu turi bankka kafolatlangan daromad keltiradi. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning taʼminoti sifatida koʻchmas mulk, boshqa bank yoki sugʻoʻrta tashkilotining sugʻurta kafolati ham qaboʻl qilinishi mumkin. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy oʻrinni egallaydi. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining yana bir turi fond operatsiyalaridir. Turli qimmatli qogʻozlar uning obʼekti boʻlib xizmat qiladi. Banklarning qimmatli qogʻozlar boʻyicha operatsiyalarining 2 turi koʻproq qoʻllaniladi. Boʻlar qimmatli qogʻozlarni kreditning taʼminlanganligi uchun qaboʻl qilish yoʻli bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidan oʻz hisobiga sotib olish yoʻli bilan operatsiyalar oʻtkazish. Qimmatli qogʻozlar taʼminoti boʻyicha ssudalar ularning toʻliq bozor kursi qiymati boʻyicha emas, balki ularning maʼlum bir qismi (60-80%) boʻyicha beriladi. Qimmatli qogʻozlar soxta kapitalni ifodalasada, ular boʻyicha ssudalar haqiqiy tovar ishlab chiqarish bilan bogʻlangan jarayonga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qimmatli qogʻozlardagi bank investitsiyalari ham mavjud boʻlib, bu holda bank turli emitentlardan qimmatli qogʻozlarni sotib oladi va bank qimmatli qogʻozlar portfeli vujudga keladi. Tijorat bank faoliyatini tashkil qilishning ilk bosqichi, ular passiv operatsiyalarini amalga oshirish hisobiga resurclarini shakllantirishdan iborat. Tijorat banki mustaqil faoliyat yurituvchi subʼekt sifatida oʻz faoliyatini boshlashi uchun zarur boʻlgan talablardan biri, bu bankning talab darajasidagi oʻz potentsiallariga ega boʻlishidir. SHu bois banklar faoliyatini olib borish avvalo etarli miqdordagi bank resurclarining mavjud boʻlishini taqozo etadi. Har qanday tijorat banklarning passiv operatsiyalarining samarali boshqarib borilishi bank resurclarining mukammal tashkil qilinishi va tejamlil ishlatilishiga zamin yaratadi.

Hosil qilingan resurslar tijorat banklarning tijorat va xoʻjalik faoliyatini taʼminlash uchun ishlatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining passiv operatsiyalari, uning tarkibi va hajmini oshirishda uni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki resurslar manbalari toʻzilmasini doimiy ravishda oʻzgartirib turishni ham oʻz ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tijorat bank passivlaridan samarali foydalanish passiv operatsiyalarini asosini tashkil



qiluvchi, xususan, kapitalini oshirish, depozit siyosatining oqilona yuritish, asosiy strategik va taktik yo'nalishlarini belgilashdan iborat bo'ladi. Tijorat banklarning o'z mablag'lari tarkibiga ularni passiv operatsiyalari orqali quyidagilar kiritilgan:

- 1) Aktsiyadorlik kapitali (Oddiy, Imtiyozli)
- 2) Qo'shimcha kapital,
- 3) Zaxira kapitali (Zaxiralar va maxsus fondlar, deval'vatsiya)
- 4) Taqsimlanmagan foyda
- 5) Qayta baxolash ortiqchasidan iborat.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'z mablag'lari ustav kapital, rezerv kapital, maxsus fondlar, o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydalar, rezervlar, qayta baxolash natijalaridan iborat. SHundan, tijorat banklar ustav kapitali ular tomonidan chiqargan aktsiyalarning nominal qiymatiga teng bo'lib, bankning boshlangich ish faoliyatida bank faoliyatini yuritishi uchun kerakli darajada mablag'ga ega bo'lish maqsadida o'zi uchun etarli bo'lgan miqdorda joylashtiriladi. SHuningdek, rivojlangan mamlakatlarda fond bozorlariga joylashtirilgan aktsiyalarning nominalidan yuqori bo'lgan bozor narxлари qo'shimcha ravishda nominalidan ortiqcha qismi qo'shimcha kapitalda xisobga olinadi. Mamlakatimiz tijorat banklarining passiv operatsiyalarini tarkibida ularni depozit mablag'larini shakllantirish manbasi tijorat banklarini aktiv operatsiyalarini tashkil etishda muhim va hal qiluvchi o'ringa ega.

Chunki passiv operatsiyalarni ichida ularning depozit mablag'lari tijorat banklari o'z aktivlarini oshirish hisobiga o'z likvidligi va rentabelligini oshirish imkoniga ega bo'ladi. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. U quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- kredit olish uchun berilgan mijozning ariza talabnomasini ko'rib chiqish;
- qarz oluvchining to'lovga va kreditga layoqatligini bank tomonidan o'rganib chiqilishi;
- kredit qo'mitasining qarori;
- kredit bitimini rasmiylashtirish;
- kredit berilishi;
- ssuda va u bo'yicha foiz to'lashning bank tomonidan nazorat qilinishi.

Kredit va uni to'lash jarayoni kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lib, kredit va qarz oluvchi o'rtasidagi majburiyat va huquqlarni belgilab beradi. Unda kreditlashning maqsadi va ob'ekti, kredit miqdori, ssudani berish va uni to'lash muddati, kredit ta'minotining turlari, kredit uchun foiz stavkasi va boshqalar ko'rsatiladi. Ssudani to'lashni nazorat qilish bankning kredit portfelini muntazam tahlil qilish asosida olib boriladi va kreditlarning sifat darajasi aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida jismoniy shaxslarga naqd pul mablag'lariga bulgan talabni minimallashtirish orqali naqd pulsiz hisob kitoblar tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish bo'yicha har bir tijorat banki



o'zining strategik dasturini ishlab chiqish kerak. Mazkur dasturda qadamma-qadam barcha xizmat turlarini masofaviy hamda onlayn rejimga o'tkazish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqish kerak bo'ladi. Mazkur yo'l xaritasida belgilangan vazifalarni moliyalashtirish manbasi, amalga oshirish muddatlari, amalga oshirish uchun mas'ul boshqarma hamda loyihani ishga tushirish muddati kabilar keltirib o'tilishi zarur.

2. Xozirgi kunda tijorat banklari tomonidan masofaviy tarzda ko'rsatiladigan xizmat turlariga kommunal va boshqa to'lovlar, kartadan-kartaga pul o'tkazmalari, onlayn konversiya, onlayn omonat xizmatlari, shuningdek, ayrima banklarda chakana kreditlash xizmatlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, keyingi bosqichda ularning turini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, xalqaro pul o'tkazmalariga integarsiyalashuv orqali xorijga mablag'larni jo'natish va qabul qilish, plastik kartalar virtual emmisiyasi xizmatini kiritish kablar shular jumlasidandir.

3. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishi mijozlarni identifikatsiya qilishga bo'lgan zaruriyatni yuzaga chiqarishi tabiiy holat. Shuni inobatga olgan holda, barcha mobil-bank xizmatlariga mijozga xizmat ko'ratishda xodimni identifikatsiya qilish zaruriyati yuzaga kelganda, Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlar bazasidan integratsiya qilish imkoniyatlarini yaratib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Murojaat (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi gazetasining 23 dekabr soni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3620-sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik byuleteni, 2018-2020 yillar
4. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).
5. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организации. – 2014. - No2. – С. 23-27.
6. Забродская К.А., Захарова А.О. Основы развития дистанционного банковского обслуживания. БГЭУ Белорусский государственный экономический университет. Библиотека. 2012 г. 57-63.
7. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Rasmiy sayti 8. www.bankers.uz